



THE RELIGIOUS POLICY OF TURKESTAN GOVERNORS-GENERAL TOWARDS THE INDIGENOUS PEOPLES OF THE REGION IN THE LATE 19TH AND EARLY 20TH CENTURIES (EXEMPLIFIED BY THE ACTIVITIES OF S.M. DUKHOVSKY)

Mukhlisa. Kamolova

basic doctorant

*National university of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: policy of “ignoring Islam”, mufti, confession, “religious tolerance”, V.P.Nalivkin, “Islam in Turkestan” report.

Received: 03.05.25

Accepted: 05.05.25

Published: 07.05.25

Abstract: This article examines the attitude towards Islam in Turkestan under the colonial rule of the Russian Empire, how religious issues were resolved in the region, the religious policy initiated by the first general-governor of Turkestan, K.P. Kaufman, and the attempt to change this policy in the late 19th and early 20th centuries, the issue of organizing a Muslim religious administration in Turkestan, using the example of S.M. Dukhovskoy, who served as the general-governor of the region from 1898 to 1901.

XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLARINING O'LKDAGI TUB XALQLARGA NISBATAN OLIB BORGAN DINIY SIYOSATI (S.M.DUXOVSKOY FAOLIYATI MISOLIDA)

Muxlisa Kamolova

Tayanch doktorant

*O'zbekiston Milliy universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: “islomni e'tiborsiz qoldirish” siyosati, muftiy, konfessiya, “diniy bag'rikenglik”, V.P.Nalivkin, “Turkistonda islam” ma'ruzasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi sharoitida Turkistonda islam diniga bo'lgan munosabat, o'lkada diniy masalalar qay tarzda hal etilganligi, Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman boshlab bergan diniy siyosat va XIX asr oxiri XX asr boschlarda ushbu siyosatga o'zgartirish kiritishga bo'lgan urinish, Turkistonda musulmonlarning diniy boshqarmasini tashkil etish masalasi 1898-

1901 yillarda o'lka general-gubernatori lavozimida faoliyat yuritgan S.M.Duxovskoy faoliyati misolida ochib berilgan.

РЕЛИГИОЗНАЯ ПОЛИТИКА ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРОВ ТУРКЕСТАНА В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ В ОТНОШЕНИИ КОРЕННЫХ НАРОДОВ КРАЯ (НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С.М.ДУХОВСКОГО)

Мухлиса Камолова

докторант

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политика “оставить без внимания ислама”, муфтий, конфессия, “религиозная толерантность”, В.П. Наливкин, лекция “Ислам в Туркестане”.

Аннотация: В данной статье рассматривается отношение к исламу в Туркестане в колониальных условиях Российской империи, способы решения религиозных вопросов в стране, религиозная политика, инициированная первым генерал-губернатором Туркестана К.П. Кауфманом, и попытка изменения в этой политике в конце XIX века и начало XX века, а также раскрывается вопрос создания религиозного управления мусульман в Туркестане на примере С.М. Духовского, занимавшего пост генерал-губернатора страны в 1898-1901 гг.

Turkiston o'lkasida islom dini, shariat qonun-qoidalari deyarli har bir sohada yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan. O'lkada mahalliy aholining yerga bo'lgan haq-huquqlari ham shariat qonun-qoidalari asosida boshqarilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Turkistonning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman (1867-1881) islom dini va uning vakillarining jamiyatdagi o'rnini aniq tushungan va bu rolni susaytirish siyosatini nimadan boshlash kerakligini bilgan. Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman imperator Aleksandr II ga yozgan hisobotida ta'kidlab o'tgan edi: “Albatta, bu davlatlar tepasida amir va xonlar turgani bilan davlat ishlarini boshqarishda islom dini vakillari yetakchi rol o'ynaydi. Shu bilan bir qatorda, fan, maorif va sud sohasidagi ishlar ham ularning qo'lidadir”. [6]

Mahalliy xalqlarning milliy va diniy hayotiga rus hokimiyatning aralashmaslik pozitsiyasi sovet davri tarixiy adabiyotlarida musulmon institutlari va din vakillarini e'tiborsiz qoldirish siyosati deb ham atalgan, umuman olganda, o'sha davr nuqtai nazaridan, o'lkada islom diniga nisbatan yuritilgan bunday siyosat O'rta Osiyoni bosib olish va mustamlaka qilishning birinchi o'n yilliklarida tanlangan eng maqbul yo'l edi. [3]

Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi bilan Rossiya tarkibida musulmon aholi soni bir necha baravarga ko‘paydi va din masalasi hal qilinishi lozim bo‘lgan muhim sohalar qatoriga kirdi. Rossiya imperiyasida XIX asr boshlarida xorijiy konfessiyalarning diniy ishlari bo‘limi Ichki Ishlar Vazirligi tarkibiy qismiga kirgan. Ushbu bo‘lim o‘z faoliyatida “to‘liq bag‘rikenglik” tamoyiliga amal qilgan, faqat bunday “bag‘rikenglik” davlat tartibi manfaatlariga to‘la mos kelishi shart edi. Ushbu sohani tartibga soluvchi asosiy qonunchilik hujjati 1896-yilda nashr etilgan “Xorijiy konfessiyalarning ma’naviy ishlari to‘g‘risidagi Nizom” edi. Unga ko‘ra, Rossiyadagi musulmonlarning diniy hayoti Ichki Ishlar Vazirligiga bo‘ysunuvchi davlat muassasalarining “muftiyalar” tomonidan tartibga solingan. [8. – C.157]

Turkiston general-gubernatorligi dastlab tashkil topganda Vazirlik o‘lkani Ufa muftiyati orqali, to‘g‘rirog‘i, “Orenburg Muhammadiylar diniy yig‘ilishi” yordamida nazorat qiladi, deb taxmin qilingan edi. Biroq, Turkistonning bиринчи general-gubernatori K.P.Kaufman Turkiston general-gubernatori lavozimiga kirishgach, o‘zining din borasidagi siyosatini yurita boshladi. Natijada, K.P.Kaufman o‘ziga berilgan keng vakolatlardan foydalanib, muftiylik bilan aloqani uzdi. [8. – C.157] K.P.Kaufman Turkistonda islom dinining asl kuchini to‘g‘ri baholay olmagan. Dinning o‘lka aholisi ichida qay tarzda mustahkam tarzda yoyilganini e’tiborga olmagan, u Rossiya imperiyasi musulmon mustamlakalaridagi singari bosh muftiy rahbarligidagi ma’naviy boshqaruv tashkil etishni doimo rad etib kelgan.

1882-yilda K.P.Kaufmanning vafotidan so‘ng, Turkiston general-gubernatorligi rahbariyati tomonidan uch marta (1884; 1898-1901; 1908-yillarda) musulmon din arboblari ustidan to‘liq nazorat o‘rnatish, musulmon aholisining Rossiya hokimiyatiga munosabati haqida ma’lumot berish uchun Turkiston o‘lkasi musulmonlarining Diniy boshqarmasini tashkil etishga urinishlar amalga oshirildi. [4. – C.32]

1898-yil 28-martda S.M.Duxovskoy Turkiston general-gubernatori etib tayinlandi. 1898-yil 18-mayda Andijon qo‘zg‘oloni yuz berdi. Amalda, yangi o‘lka boshlig‘i Turkiston rahbarlarining avvalgi faoliyati natijalarini o‘z zimmasiga olishga majbur bo‘ldi. Aslida, Andijon qo‘zg‘oloni sodir bo‘lishiga olib kelgan sabablar ham Rossiya imperiyasining o‘lkada chuqur o‘ylanmay olib borgan siyosati natijasidir: 1874-yilda musulmonlarning besh asosiy majburiyatidan biri bo‘lgan zakotning bekor qilinishi va uning o‘rniga hunarmandchilik solig‘ining joriy etilishi musulmon aholining noroziligiga sabab bo‘lgan va ushbu kayfiyat yillar o‘tib yirik qo‘zg‘olonlarning avj olishiga olib kelgan. Shunday qo‘zg‘olonlardan biri Andijon qo‘zg‘oloni edi. [1. – C.371]

Andijon qo‘zg‘oloni Turkiston general-gubernatorligi ma’muriyatini sergak tortishga majbur qildi, bir necha yil davomida o‘lkaning oliy rahbariyati podsho hokimiyatiga qarshi

ommaviy qo‘zg‘olonga olib kelgan sabablarni sinchiklab o‘rganib chiqdi. Tabiiy ravishda, kelajakda bunday hodisalarning oldini olish uchun tegishli choralar ko‘rildi va mahalliy aholiga, ayniqsa islom dini yuqori vakillariga nisbatan ishonchsizlik yanada kuchli namoyon bo‘ldi.

S.M.Duxovskoy general-gubernator bo‘lsada, amalda uning yordamchisi N.A.Ivanov boshqaruvni o‘z qo‘liga olgan edi. G.Fyodorov ta’kidlashicha, Turkistonga tayinlangan S.M. Duxovskoy allaqachon “ruhan va jismonan charchagan, hech qanday ishga qodir emas, butun boshqaruv og‘irligini o‘zining yordamchisi general Ivanovga yuklagan”. [7]

General-gubernator vazifasini bajaruvchi general-leytenant N.A.Ivanov tomonidan “Turkiston o‘lkasida musulmon Diniy boshqarmasini tuzish masalasi” bo‘yicha komissiya tashkil etildi va ushbu komissiya tarkibiga mahalliy musulmon qatlaming birorta ham vakili kiritilmadi. [4. – C.89]

Turkiston general-gubernatori S.M.Duxovskoy, general Korolkov ishlab chiqqan dasturni to‘ldirgan holda, imperiya hukumati harbiy vaziriga 1898-yil 6-sentabrda yuborgan maktubida rus hukumatining Turkistonda amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishlari haqida o‘z mulohazalarini bildirdi. Bular quyidagilardan iborat edi:

1.Xalqning ma’naviy-ruhiy holatiga kuchli ta’sir o‘tkazuvchi barcha musulmon muassasalari, ayniqsa madrasa ishlariga faol aralashish.

2.Barcha mahalliy musulmonlarni birlashtirishga qodir organ sifatida musulmon diniy boshqaruvi idorasiga yo‘l qo‘ymaslik.

3.Barcha yerli maktablarni ma’muriyat ixtiyoriga o‘tkazish va barcha mahalliy musulmon o‘quv yurtlari va diniy muassasalrni to‘liq ro‘yxatdan o‘tkazish.

4.Turkistondagi barcha musulmonlarga yahudiylargacha nisbatan o‘rnatalganiga o‘xshash munosabatlarni joriy qilish; shuning uchun barcha yerli musulmon maktablariga 1893-yil 1-mart qonunini qo‘llash; (ushbu qonunga ko‘ra musulmon maktablari o‘qituvchilarini har yili alohida guvohnomalar olishlari va ular uchun haq to‘lashlari lozim edi).

5.Siyosiy jihatdan zararli deb topilgan mahalliy musulmon muassasalarini yopish huquqini general-gubernatorga berish, oila va nikoh ishlarini hal qilish huquqini rus ma’muriyatiga qaytarib berish. [5. – Б.259]

General-gubernator S.M.Duxovskoy bu takliflarning umumiylasosini belgilab, “nodon va ehtirosli osiyoliklar uchun islom hamon kuchli ta’sir qilishini” [2. – C.6] uqtirib, bu ta’sir hali uzoq davom etishini ta’kidlab o‘tdi. S.M.Duxovskoy fikricha, Turkiston o‘lkasining o‘ziga xos xususiyati bu yerdagiligi aholisi ancha yakdilligidir. [8. – C.157]

Turkiston oliy hokimiyat vakillarining sa’y harakatlariga teskari o‘laroq, XX asr boshlarida o‘lkada juda ko‘p musulmon ta’lim muassasalari ochildi. 1913-yilda Rossiya imperiyasining

Turkistondagi maorif ishlari tashkilotchilaridan biri, Toshkent seminariyasi mudiri N.Ostromov o'lka xalq maktablari bos inspektori nomiga yozgan hisobotida Farg'ona viloyatida masjidlar nomi ostida madrasalar ochilayotganini yozadi. Shunday qilib, mahalliy ilm-fan homiyulari Turkiston ma'muriyati tomonidan o'rnatilgan madrasalar ochish bo'yicha qat'iy va ko'pincha amalga oshirib bo'lmaydigan qoidalarni chetlab o'tadilar. Madrasa ochilishining yana bir sharti bu o'quv dargohida mullalar tayyorlash uchun rus tili darslarining ochilishi edi. N.Ostromov afsus bilan yozadi: "Turkiston o'lkasida islom dini zaiflashayotgani yo'q, musulmon maktablari (madrasa va maktablar) yo'q bo'lib ketmayapti, chunki ma'muriyat va o'quv bo'limining ba'zi mutasaddilari hali ham bu haqda o'ylashda davom etmoqda". [3]

Turkiston o'lkasida islom dinining ta'siri kuchlilagini quyidagi faktlar ham isbotlaydi. Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlaridagi turli nomdagi 119 ta rus ta'lim muassasasi hisobiga 5246 ta musulmon maktabi, birgina Farg'ona viloyatidagi 6 ta pravoslav cherkoviga 6134 ta masjid to'g'ri kelgan. [2. – C.13]

XIX asr oxirida Turkistondagi vaziyat shu davrdagi o'lka rahbari S.M.Duxovskoyni islom dini masalasiga e'tibor qaratishga majbur qildi. Bu yo'nalishda "xristianlarni musulmonlar bilan yaqinlashtirish" bo'yicha chora-tadbir sifatida quyidagilar taxmin qilingan edi: o'lkadagi barcha xizmatchilar musulmonlar turmushi bilan mufassal tanishib chiqishi, barcha muassasalar kutubxonalari va mahkamalari rus tilida islom haqidagi eng asosiy ma'lumotnomalar va dasturulamal asarlarga ega bo'lishi, "Islom bo'yicha materiallar to'plami"ni muntazam nashr etish, barcha musulmon nashrlariga senzura joriy etish. [2. – C.10]

Amalda esa general-gubernator yordamchisi N. Ivanov Turkistondagi islom pozitsiyasini yoritishga yana bir urinish qildi. 1899-yilda "Turkiston general-gubernatori, infanteriya generali Duxovskoyning "Turkistonda islom" haqidagi Butun Rossiya bo'yicha ma'ruzasi" nashr etildi. Ma'ruzani tayyorlashda asosiy rolni taniqli O'rta Osiyo etnografi va islomshunosi, Turkiston general-gubernatori huzuridagi maxsus topshiriqlar bo'yicha katta amaldor V.P.Nalivkin o'ynadi. Aynan V.P.Nalivkin o'z xizmat vazifalariga ko'ra general-gubernator Kanselyariyasida "islom ishi"ni yuritishni boshladi, ushbu masala bo'yicha Toshkentga keladigan barcha ma'lumotlarni o'zida jamladi. S.M.Duxovskoyning ma'ruzasida o'lka ma'muriyati va ziyolilarning bir qismi pozitsiyasi ochiq-oydin ko'rsatilgan bo'lib, ular Rossiya mustamlaka siyosatini ulug'lashgan va islomni asosiy dushman deb hisoblashgan. [4. – C.217]

Turkiston general-gubernatori S.M.Duxovskoyning ma'ruzasida o'lkada rus mustamlakachilagini rivojlantirish va mustahkamlash uchun tarjimonlar rolining kamaytirish kerakligidan o'lkadagi rus ma'muriyati vakillari tomonidan mahalliy tillarni o'rganish, rasmiy

munosabatlarda rus tilining asta-sekin joriy etilishi, shuningdek, musulmonlarni umumiy davlat sud muassasalariga bo‘ysundirish singari birinchi galdeg'i vazifalar belgilangan.

Ma’ruza muallifining xulosalari shundan dalolat beradiki, bundan keyin “islom diniga e’tibor bermaslik” nafaqat nomaqbul, balki imkonsiz hamdir. S.M.Duxovskoy Kavkazorti kabi bir xil asosda, ammo muftiysiz, lekin shariat asosida tashkil etilgan, turkiy va fors tillarini biladigan ruslardan rais yoki senzuradan iborat maxsus Turkiston ma’naviyat kengashi tuzishni taklif qildi. Bu taklif mullalar va musulmon maktablari ustidan hukumat nazoratini tashkil qilish imkonini ham Berardi. [8. – C.159]

Turkiston general-gubernatori S.M.Duxovskoy taklif qilgan chora-tadbirlar butun Rossiyaga taalluqli edi. Ko‘rinadiki, V.P.Nalivkin ham, S.M.Duxovskoy ham bir masalada yakdil edilar: islomga yaxshi munosabatda bo‘lish mumkin emas. Shuning uchun ham Turkistonda agarda musulmonlar norozilik chiqishlarini qilgan taqdirda, uni darhol bostirish uchun har doim jangovar qo‘shinlar shay turishi kerak edi. [4. – C.218]

Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasidagi markaz ma’murlari va islomshunoslari tomonidan 1899-yildagi ma’ruzada musulmonlarga qarshi ishlab chiqilgan tavsiyalar poytaxt yuqori hukumat vakillari doirasida qizg‘in munozaraga sabab bo‘ldi. Ma’lum ikkilanishlardan so‘ng, Rossiya uchun juda keng tarqalgan va asosli bo‘lgan odad ustun keldi: “Bir qismiga tegsang, hammasi qulab tushishi mumkin”. Aynan shu sababli, o‘sha paytda musulmonlar masalasida biron-bir muhim qaror qabul qilinmadi va S.M.Duxovskoyning loyihasi amalda “to‘xtatib qo‘yildi” va Rossiya hukumati Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi va Harbiy vazirlikdagi muhokamadan so‘ng Turkistonda islomni davlat tomonidan tartibga solish siyosatiga oid hech narsani o‘zgartirmaslik to‘g‘risida qaror qabul qildi. [8. – C.161]

1900 yil noyabrida S.M.Duxovskoy Turkistondan chaqirib olindi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida o‘lka general-gubernatori Turkistonda islom dini masalasi bo‘yicha maxsus diniy boshqarma tashkil etish masalasida amalda hech qanday natijaga erisha olmadi. Keyingi davrda Turkiston general-governatorligi ma’muriyati islom dini vakillarining ichki ishlariga aralashmaslik niqobi ostida ish yuritishda davom etdi hamda ularga nisbatan ehtiyyorkorlik bilan munosbatda bo‘lib, diniy masalada madrasalarni tamomlaganlarni davlat ishlariga olinishiga to‘sqinlik qilish, madrasalarda dunyoviy fanlarning o‘qitilishiga qarshilik qilish, islom dini vakillarini davlat ichki ishlariga aralashuvini cheklash kabi usullardan foydalanishda davom etdi.

ADABIYOTLAR:

1. Бартольд В. В. Сочинения. М., 1963. Т. 2. Ч. 1.

2. Всеподданнейший доклад Туркестанского генерал-губернатора от инфanterии Духовского. Ислам в Туркестане, 1899.
3. Мухаммедов Ш. Исламский вопрос в Российском Туркестане: или была ли альтернатива политике игнорирования. <https://ia-centr.ru/experts/iats-mgu/islamskiy-vopros-v-rossiyskom-turkestane-ili-byla-li-alternativa-politike-ignorirovaniya-ch-1/>
4. Мухаммедов Ш. Историко-источниковедческий анализ государственного регулирования ислама Российской империей в Туркестане (1864-1917) – Ташкент.: BAKTRIA PRESS. 2013.
5. Ўзбекистоннинг янги тарихи Туркистан чор Россияси мустамлакачилиги даврида – Т.: Шарқ, 2000.
6. ЎзМА: 36 фонд, 1 рўйхат, 2366 иш, 24 варак.
7. Фёдоров Г. Моя служба в Туркестанском крае. (1870-1910 года) // Исторический вестник. 1913 г. <https://turkestan-xix.livejournal.com/5240.html>.
8. Шушкова М.Э. Организация управления Туркестаном в начале XX века. – М.2015.